

RANG KONSEPTNING LINGVOMADANIY IFODALANISHI

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili ixtisosligi 1-kurs tayanch doktoranti
Xoliqova Zahro*

Annotatsiya

Ushbu maqolada konsept tushunchasi izohi berilgan. Bu orqali rang nomlarining konsept sifatida o‘rganilishi izohlangan. Maqolada tavsifiy metoddan foydalanilgan. Maqola oxirida tadqiqot ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar

Konsept, antroposentrik tilshunoslik, toponimlar, frazeologizmlar, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik

Rus tilshunosligida konsept tushunchasi XX asrning birinchi choragida faylasuf S.Askoldov tomonidan ilmiy muomalaga kiritiladi. S.Askoldovning qarashicha, konseptlar vositasida turli millat vakillari muloqotga kirishadi, shunga ko‘ra, konseptlarni yaratish va idrok qilish ikki tomonlama kommunikativ jarayon hisoblanadi. Lisoniy makonda mavjud bo‘lgan bunday tizim dunyo milliy manzarasining o‘ziga xosligini belgilaydi.¹ Demak, konsept tushunchasi rus tilshunosligida XX asrda paydo bo‘lgan bo‘lsa, o‘zbek tilshunosligida qachon paydo bo‘lgan va u nima uchun xizmat qiladi? Konsept antroposentrik tilshunoslikning birligi bo‘lib, uni lingvokulturologiyada, kognitiv tilshunoslikda, psixolingvistikada uchratishimiz mumkin. O‘zbek tilshunoslaridan professor Nizomiddin Mahmudov konsept tushunchasini quyidagicha izohlaydi: “lingvokulturologik tadqiqotlarda aynan konseptning ifodalanishi muammolariga e‘tibor qaratilmoqda, internet materiallari bilan tanishganda, masalan, Rossiyadagi tilshunoslarda nihoyatda keng tarqalganini ko‘rish mumkin, bu boradagi ishlarni sanab, sanog‘iga yetish mushkul, hatto so‘nggi yillarda nomzodlik dissertatsiyalarining juda katta qismi aynan konseptning lingvokulturologik tadqiqiga bag‘ishlangan.² Konsept haqidagi izlanishlarni mukammal o‘rgangan olim Durдона Xudoyberganova konsept haqida quyidagi xulosaga keladi: “Konsept-mental tuzilma. Shuningdek, u ayni vaqtda ko‘p qatlamli va ko‘p qirrali, o‘zida psixologik, kognitiv-semanik, va lingvokulturologik tadqiqotlar obyekt sifatida tavsiflanayotgani ham shundan dalolat beradi. Shu sababli biz konseptning subyektiv, ijtimoiy, lingvomadaniy konseptlar sifatida tiplarga ajratilganini yagona mohiyatga turli jihatlardan yondashuv sifida baholaymiz”.³

¹ Асколдов С.А. Концепты и слово. - М: Академия, 1997.

² N.Mahmudov. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab...//O‘zbek tili va adabiyoti, - Toshkent, 2012.- N5.-B9.

³ D.Xudoyberganova. matnning antroposentrik tadqiqi. “Fan” nashriyoti, - Toshkent, 2013.-B13.

Ko‘plab ilmiy asarlardan xulosa qilib konseptni tushuncha deb tarjima qilish mumkin, ammo bu so‘zning bir tomonini yoritadi. Konsept deyilgan madaniyat bilan bog‘liq hodisa deyishimiz mumkin. Masalan, rang nomlarini biz qaysi xususiyatini o‘rganib, u konsept bo‘ladi? Rang nomlarini madaniyatimiz bilan bog‘liq holda o‘rganishimiz kerak. Chunki, konsept har bir xalq uchun madaniy birlik.

Ma‘lumki, rang nomlari jahon tilshunosligida koloronimlar deb nomlanib, doimo olimlarning e‘tiborini o‘ziga tortgan va turli yo‘nalishlar bo‘yicha o‘rganilgan: strukturaviy-semantik, etimologik, tarixi. Ammo o‘zbek tilshunosligida hech qaysi xususiyati o‘rganilmagan. Bu es ilmiy ishimizning dolzarbligini belgilaydi.

Inson tabiatni va uning atrofidagi dunyoni rangda idrok etadi, u bilan narsalarning holati to‘g‘risida subyektiv mulohazalar bilan bog‘laydi, yangi obyektlarni yaratadi, ularga nafaqat shakl beradi, balki rang ham beradi. Rang madaniy doimiylik sifatida taraqqiyotga xizmat qiladi, subyektivlashtiriladi va milliy-madaniy qadriyatlarni ham anglatadi. Rang belgilari leksemalar, iboralar va frazeologik birliklarda uchraydi

Ranglar bo‘yicha lingvistik tadqiqotlar quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi: madaniy jihat, rangning madaniyat bilan aloqasi; rangning psixologik xususiyatlari leksik-semantik xususiyati, etimologiyasi, graduanomiyasi kabi xususiyatlari o‘rganilishi kerak.

Rang nomlari har bir tilda bor va ularning ifodalanishi xalqning madaniyati bilan bog‘liq. Rang nomlarini konsept sifatda olishimiz uchun ularning ramziy ma‘no ifodalanishini keltirishimiz mumkin. Masalan, oq poklik, ezgulik timsoli bo‘lsa, qora yovuzlik, motam ramzi, qizil esa sevgi-muhabbat ramzi. Ranglar ishlatilgan badiiy matnlarda fikrimiz isboti bo‘la oladi:

1. *Patnisda to‘rtta kulcha, ikki bosh qizil chillaki va bir bosh qush cho‘qigan qandaydir oq uzum bor edi.* (Oybek, Tanlangan asarlar)

2. *Shirinzabonovning yuziga qizil yugurdi.* «Mushtum».

3. *Bu kungi kech Otabek bilan Homidning hayot va mamot masalalarini o‘zining qora quchog‘iga olgan qorong‘i bir tun edi.* (A. Qodiriy, O‘tgan kunlar.)

4. *Demak, yuzimning bir tomoni kundek yorug‘-u, bir tomoni tunde qora ekan.* (X. To‘xtaboev, Shirin qovunlar mamlakati.)

5. *Shuning uchun ham ko‘cha-ko‘yda «sariq matbuot»ning voqyea izidan quvuvchi hikoyalariga odamlar o‘rganib boryapti.* Gazetadan

Rang nomlarining joy nomlarida uchrashi ham milliy madaniyatimiz, xalqimizning dunyoqarashi bilan bog‘liq. Masalan, *Oqdaryo, Qoradaryo, Qoraqush, Oqtepa, Qorabura, Qoraqulonchi, Qiziltepa* kabijoy nomlari ranglar bilan bog‘liq.

Frazeologik birliklar tarkibida ham rang nomlari uchraydi. Masalan: *yuziga qizillik yugurmoq, qorasini ko‘rsatmaslik, baxti qora bo‘lmoq, ko‘ngli oq.*

Xulos sifatida shuni aytishimiz mumkinki, rang nomlarini konsept sifatida o‘rganish milliy ranglarimizning madaniyat bilan bog‘liq barcha jihatlarni ochib beradi va lingvokulturologik birlik sifatida o‘rgansa bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shomirza Turdimov. Xalq qo‘shiqlarida ramz. Toshkent: Fan, 2020. – 85 b
2. Асколдов С.А. Концепти и слово. - М: Академия, 1997.
3. N.Mahmudov.Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab...//O‘zbek tili va adabiyoti,- Toshkent,2012.- N5.-B9
4. D.Xudoyberganova. matnning antroposentrik tadqiqi. “Fan” nashriyoti,- Toshkent, 2013.-B13.